



OILAVIY MUNOSABTALARDA GENDER TENGLIGI MASALALARI

TURAKULOV BOYBURI KUZIMURATOVICH

IV Surxondaryo akademik litseyi huquqshunoslik fani bosh o'qituvchisi

Kalit so'zlar: *oila, gender, gender tengligi, Shvetsiya, O'zbekiston, ayollar huquqlari.*

Ключевые слова: *семья, гендер, гендерное равенство, Швеция, Узбекистан, права женщин.*

Keywords: *family, gender, gender equality, Sweden, Uzbekistan, women's rights.*

Yer yuzi aholisining 53 foizini, mamlakatimiz aholisining esa qariyb 50 foizini xotin-qizlar tashkil etadi [1]. Asosiy qonunimiz – Konstitutsi yada ham xotin-qizlarning barcha sohalarda teng huquqli ekanligi e'tirof etilgan. Yurtimizda xotinqizlarning huquqiy madaniyati va huquqiy savod xonligini oshirish, iqtisodiy faoliyatni keng yo'lga qo'yish, ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish masalalari davlatning ustuvor vazifalari qatoridan joy oldi. Bu borada so'nggi yillarda hukumat tomonidan ko'plab normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinmoqda.

O'zbekiston o'z oldiga jamiyatda gender teng likni ta'minlashni maqsad qilib qo'ygan ekan,

ushbu maqsadni gender tenglik darajasi juda yuqori bo'lgan davlatlarning tajribasini o'rgan masdan amalga oshirib bo'lmaydi. Zero, ushbu davlatlarda bu sohada juda katta tajriba va qonun chilik bazasi shakllangan bo'lib, ularni o'rgangan holda o'zimizga kerakli jihatlarini qabul qilish mazkur yo'nalishning rivojlanishiga olib keladi.

Dunyoda gender tengligi rivojlangan davlatlar ichida Skandinaviya davlatlari yetakchilik qilmoqda. Shulardan biri Shvetsiya bo'lib, ushbu davlat jamiyatning



barcha jabhalarida gender tengligi tamoyiliga e'tibor qaratadi. Keng ma'noda gender tengligi hozirgi sotsial-demokratik – yashil hukumat uchun asosiy masaladir. Hozirgi hukumat o'zini “feministik hukumat” deb e'lon qildi. Hukumatning gender siyosati to'rtta asosiy maqsad asosida shakllantirilgan:

1. Hokimiyatning jinslar o'rtasida teng taqsimlanishi, erkaklar va ayollarga jamiyat hayotida ishtirok etish va qarorlar qabul qilish shartlarini shakllantirish uchun bir xil huquq va imkoniyatlar berish.

2. Iqtisodiy tenglik, erkaklar va ayollarning bir xil huquq va imkoniyatlarga ega bo'lishi, umr bo'yi iqtisodiy mustaqillikka olib keladigan ta'lim va haq to'lanadigan ish.

3. Oilada yumushlarning teng taqsimlanishi, bu sohada erkaklar va ayollarga teng mas'uliyat va huquqlar berish.

4. Erkaklarning ayollarga nisbatan zo'ravonliklariga chek qo'yish, ayollarga, erkaklarga, qizlarga va o'g'illarga jismoniy yaxlitlik uchun bir xil huquq va imkoniyatlarni berish [2].

Ikkinchi jahon urushidan keyin Shvetsiya muvaffaqiyatli rivojlandi. Ushbu davlatning ko'pchilik ayollari 1970-yillarning boshlarida mehnat bozoriga integratsiya qilingan bo'lib, ko'pincha to'liq bo'lmagan ish faoliyatini amalga oshirgan. XX asrning 70-yillarida Shvetsiyada to'liq bo'lmagan ish faoliyati bilan band bo'lganlar soni nisbatan yuqori bo'lib, 1980-yillarda bu raqamlar o'zgarishsiz qoldi. 1987-yilda barcha shved ayollarining 45 foizi to'liq bo'lmagan ish kunida ishlagan bo'lsa, 2013-yilda bu ko'rsatkich 30 foizga kamaydi. Xuddi shu davrda to'liq bo'lmagan ish kunida ishlaydigan erkaklar ulushi 6 foizdan 11 foizgacha o'sdi. 2012-yilda 15 yoshdan 74 yoshgacha bo'lgan ayollarning 68,3 foizi iqtisodiy faol (mehnat faoliyati bilan shug'ullanadigan) bo'lib, erkaklarning ulushi ushbu ko'rsatkich bo'yicha 73,9 foizni tashkil etgan. Shvetsiyada mehnat bozori jins



bo'yicha toifalashgan. Ayollar, asosan, davlat sektorida ishlaydi (taxminan, 85 foiz), erkaklar esa xususiy sektorda (taxminan, 85 foiz) faoliyat yuritadi [2].

Yuqoridagi ma'lumotlarni qiyosiy tahlil qiladigan bo'lsak, Shvetsiyada ayollarning mehnat qilish huquqlari qariyb erkaklar darajasiga yetganini ko'rishimiz mumkin. Bunday ko'rsatkichlarga osonlikcha erishilgani yo'q, albatta. Buning asosida XX asrning 90-yillaridan boshlab Shvetsiyada gender tenglik masalasi davlat siyosatining eng asosiy yo'nalishlaridan biriga aylangani yotadi.

Shvetsiyada oilada xotin-qizlarga yaratilgan sharoitlar.

Yillar davomida ishlab chiqilgan oila siyosati haq to'lanadigan faoliyatda teng huquqlarni ta'minlashga qaratilgan edi. Bu siyosatning asosida shved jamiyatining uzoq vaqtdan beri dunyoviy xarakterda ekanligi yotadi. Bu xarakter oila va oilaviy huquqda ham aks etadi. Nikohdan tashqari tug'ilgan bolalar meros va boshqa huquqlarda nikohdan tug'ilgan bolalar bilan tenglashtirilgan. 1939-yilda Shvetsiyada ayollarni homiladorlik yoki nikoh tufayli ishdan bo'shatishni taqiqlovchi qonun qabul qilingan [2] va bunga juda qattiq amal qilishadi. Shvetsiya turmush-tarzi, inson huquqlari, bandlik masalasi va gender tenglikda dunyoning eng ilg'or davlatlaridan biri hisoblanadi. Nikohdan ajralish qoidalari uzoq vaqtdan beri juda liberal bo'lib kelgan va kelmoqda. Shundan kelib chiqib, ajrimlar foizining ko'pligi bo'yicha dunyodagi eng oldi davlatlardan biri hisoblanadi [3].

Oila va kasbiy hayotni uyg'unlashtirish hozirda hukumatning diqqat markazida bo'lib, otaona ta'tillarining teng taqsimlanishiga ko'maklashish hamda keksalar va bolalarni parvarish qilish bo'yicha davlat xizmatlarini kuchaytirishga qaratilgan islohotlarga e'tibor qaratmoqda. Ish beruvchiga nisbatan ota-ona ta'tiliga tegishli huquqlar bilan bog'liq bo'lgan saxiy ijtimoiy ta'minot tizimi mavjud. Bola nafaqasi 480 kun davomida to'lanadi va ota-onalar farzandlari 12 yoshga to'lgunga qadar xohlagan vaqtda ushbu nafaqadan to'liq yoki qisman foydalanishlari mumkin. Shuningdek, bir yoshdan boshlab boshlang'ich maktab yoshigacha bo'lgan bolalar



uchun kunduzgi parvarishlash muassasalari kafolatlangan va maksimal subsidiyalangan narxda taqdim etiladi.

Shvetsiyada 2008-yildan beri Gender tengligi bo'yicha nafaqa joriy qilingan bo'lib, ushbu nafaqa bola parvarishlash ta'tili vaqtida otalar yoki onalarga farzand tarbiyasi bilan faol shug'ullanishi uchun yaxshi sharoit yaratadi. Hukumat har doim ushbu nafaqani olish mexanizmini soddalashtirish ustida ish olib boradi.

2014-yilgi Shvetsiya hukumati Deklaratsiyasida asosiy e'tiborni yana gender tamoyillariga qaratdi. Davlat budjetini shakllantirishda yangi usul sifatida gender yo'nalishlarini hisobga olgan holda qabul qilish belgilandi [2].

Ayollar va erkaklar, shu jumladan, qizlar va o'g'il bolalar, Shvetsiyaning tenglik siyosatiga muvofiq, professional tayyorgarlik uchun teng huquq va o'z maqsadlari, qiziqishlari hamda iste'dodlarini rivojlantirish uchun bir xil imkoniyatlarga ega bo'lishlari kerak. Hukumat bu maqsadlarga erishish uchun doimiy choralar ko'rib keladi.

Shvetsiya Ta'lim to'g'risidagi Qonuni shunday tuzilganki, munitsipalitetlar talabalarning talab va ehtiyojlaridan kelib chiqib ta'lim dasturlarini taklif qilishadi. Ushbu dasturlar katta yoshdagi insonlarning ta'lim bilan birga boshqa ta'lim dasturlarida qatnasha olishi hamda mehnat faoliyati va oilaviy hayotni olib borishda sharoit yaratib berishi kerak.

2019-yilda Gender tengligi indeksiga ko'ra, Shvetsiya Yevropa Ittifoqi mamlakatlari orasida gender tengligi bo'yicha eng yaxshi natijani ko'rsatdi (100 maksimal balldan 83,6 ball) [4]. CEOWORLD jurnalining 2020-yilgi hisobotida Shvetsiya ayollar uchun dunyodagi eng yaxshi davlat deb tan olingan bo'lsa, 2021-yilda u 100 foizlik natijadan 99,2 foizlik natija bilan uchinchi o'rinni egalladi [5].

Xullas, Shvetsiya normativ-hujjatlarni takomillashtirish, aholiga huquqiy xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash, huquqiy ma'lumotlar bilan ta'minlash, huquqiy tarbiya vositalari va usullarini takomillashtirish bo'yicha katta ishlarni amalga oshirdi, oilada xotin-qizlarning huquqlarini ta'minlashga erishdi. Hukumat



darajasida gender tenglik davlat siyosatining ustuvor strategik yo‘nalishlariga aylandi. Natijada ushbu siyosat jamiyatning barcha bo‘g‘inlariga, shu jumladan, oilaga ham kirib bordi. Umuman olganda, jamiyatning barcha sohalarida xotin-qizlarga qulay imkoniyatlar yaratildi va bu imkoniyatlarning amalga oshirilishi uchun barcha vositalardan foydalanildi. Natijada Shvetsiya bu borada dunyoning eng oldi davlatlari orasida yetakchilardan biriga aylandi.

Shvetsiya tajribasidan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, oilada gender tenglikni ta‘min lash, xotin-qizlarning huquqlarini mustahkamlash, bu huquqlardan foydalanish uchun zarur sharoitlarni yaratish jamiyatimiz oldida turgan asosiy masalalardan biri hisoblanadi. To‘g‘ri, gender tenglik masalasida O‘zbekiston va Shvetsiya jamiyatlarining xususiyatidan kelib chiqadigan katta farq bor. Bularga tarixiy turmush-tarzi, din va qadriyatlar kiradi. Lekin shunday tajribalar borki bularni qo‘llash dinimiz va qadriyatlarimizga zarar yetkazmagan holda xotin-qizlarimizning huquqlari ta‘minlanishiga olib keladi. Bunda aholining huquqiy savodxonligini ta‘minlashda yuridik axborot tizimining puxta ishlab chiqilgan bo‘lishi katta ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Agzamova G. Huquq va g‘ururning erkak-ayoli bo‘lmaydi. // Xalq so‘zi 03 iyul 2020 yil.
xs.uz/uz/post/huquq-va-gururning-erkak-ayoli-bolmajdi
2. Numhauser-Henning A. The Policy on Gender Equality in Sweden. Brussels.2015.
[https://www.europarl.europa.eu/RegData/etudes/STUD/2015/510011/IPOL_STU\(2015\)510011_EN.pdf](https://www.europarl.europa.eu/RegData/etudes/STUD/2015/510011/IPOL_STU(2015)510011_EN.pdf)
3. <https://worldpopulationreview.com/country-rankings/divorce-rates-by-country>
4. Gender Equality Index 2019: Sweden.
<https://eige.europa.eu/publications/genderequality-index-2019-sweden>
5. Ireland Sophie. Ranked: The World’s Best Countries For Women 2021. Ceoworld. 21 June 2021.